



“BUXORO ADABIY MUHITI: KECHA VA BUGUN”

mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy

**ANJUMAN
MATERIALLARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI BUXORO
VILOYATI BO‘LIMI**

**TOJIKISTON RESPUBLIKASI BOBOJON G‘OFUROV
NOMIDAGI**

XO‘JAND DAVLAT UNIVERSITETI

TURKIYA JUMHURIYATI HACETEPE UNIVERSITETI

**“BUXORO ADABIY MUHITI:
KECHA VA BUGUN”**

**mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

**Buxoro
“Ilm ziyosi”
2024**

KBK: 84.3(0)7.724
UDS: 821.557.632.2.4.5.41
K-54

“Buxoro adabiy muhiti: kecha va bugun” mavzusidagi AL-662204396 “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari. – Buxoro: “Ilm ziyosi”, 2024. – 632 b.

Buxoro davlat universiteti rektorining 2024-yil 15-avgustdagi 509-U sonli buyrug‘i asosida Buxoro davlat universitetida o‘tkazilgan “Buxoro adabiy muhiti: kecha va bugun” mavzusidagi AL-662204396 “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari besh bo‘limdan iborat bo‘lib, uning har bir bo‘limida Buxoro adabiy muhitining o‘tmishi va buguniga doir dolzarb muammolari qamrab olingan. 200 ga yaqin maqolalarni o‘z tarkibiga olgan mazkur to‘plam professor-o‘qituvchilar, mutaxassis va tadqiqotchilar, doktorant va izlanuvchilarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrirlar:

Q.To‘xsanov – BuxDU professori
Sh.Davronova – BuxDU professori

Tahrir hay’ati:

H.Eshonqulov, D.Rajabov, G‘.Murodov, Sh. Axmedova, D.O‘rayeva,
D.Quvvatova, Sh.Hayitov, M.Rajabova, N.Bekova, Z.Amonova

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:

N.Qodirova, R.Rajabova, N.Norova

Taqrizchilar:

Laylo Sharipova– filologiya fanlari doktori, professor
Hayot Latipov– filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

ISBN 978-9910-745-39-3

© Buxoro davlat universiteti, 2024

© “Fan ziyosi”, 2024

ABDURAHMON TAMKIN BUXORIYNING HAYOTI VA ADABIY MEROSI

Bekova Nazora Jo'rayevna,

Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Mazkur maqola XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab, ijod etgan sarmahsul ijod namoyandasi, zabardast shoir va zamonasining peshqadam olimlaridan biri Abdurahmon Tamkinning hayoti hamda adabiy merosi haqidadir. Tamkin Buxoriyning hayoti va adabiy merosini tahlil qilishda qiyosiy-tipologik, tahlil, biografik usullardan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Abdurahmon Tamkin, XIX asr oxiri, XX asr boshlari, tazkiralar, Mulla Abduxoliq, Buxoro madrasalari, qasida, g'azal, "Rubouyot" asari, mufradot, chiston, muammo.

Аннотация: данная статья посвящена жизни и литературному наследию Абдурахмана Тамкина, выдающегося поэта и одного из ведущих ученых своего времени, плодотворного творческого деятеля, жившего и творившего в конце XIX начале XX века. При анализе жизни и литературного наследия.

Ключевые слова: Абдурахман Тамкин, конец XIX-начало XX века, тазирь, мulla Абдухолик, бухарские медресе, Касыда, Газель, произведение "Рубуйот", муфрадод, чистан, проблема.

Annotation: this article is about the life and literary heritage of Abdurahman Tamkin, a prolific artist of the late 19th and early 20th centuries, poet and a pioneer of his time. Comparative - typological, contextual analysis, biographical methods were used in the analysis of Tamkin Bukhari's life and Literary heritage.

Keywords: Abdurahman Tamkin, late 19th, early 20th century, Tazkiras, Mullah Abduholiq, Bukharan medressas, odd, verse(gazal), "Ruboiyot" work mufradod, chistan, muammo(problem).

Har bir xalq o'z tarixini avaylab keladi. Bu tarix ne'matlari bo'lmish madaniy va adabiy meroslaridan kelajak sari ildam yo'l bosish uchun kuch-quvvat oladi. Tarix bu ko'hna dunyo demakdir. Davrlar, xalqlar va o'sha zamonni jonlantirish, tilga kiritish esa tarixning burchidir. Ajdodlarimiz tabarruk xotirasini abadiylashtirish esa bugungi va kelgusi avlodlarning muqaddas vazifasidir. Zero, "Tarixidan bexabar xalq mazlum, tarixi yolg'on yozilgan xalq mahkum; tarixini asragan va bilgan xalq qudratli va tenglar ichra teng xalqdir", - deb aytgan yurtboshimiz nechog'li haq.

Ilmiy ishda ana shunday tarix zarvaraqlarida o'z o'quvchisini kutib yotgan ijodkorlardan biri haqida qarashlar bayon etiladi.

Abdurahmon Tamkin Buxoriy XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab, ijod etgan sarmahsul ijod namoyandasi, zabardast shoir va zamonasining peshqadam olimlaridan edi. Bu haqda zamonasining ma'rifatparvar olimi Ahmad Donish Tamkinni ulug' shoirlar qatorida sanab, uning ijodiga yuqori baho bergan: "Bilchumla dar on zamone ki mo budem, bozori fazlu hunar naroiyu kasod bud. Shohin, Muhtarib va Tamkin az shuaro'i muqaddami on nzamon budand".

Tamkin ijodini o'rganish uchun quyidagi 3 manbani nazardan o'tkazish lozim:

- 1) XIX asrda yaratilgan tazkiralar;
- 2) Tamkinning o'z asarlari;
- 3) shogirdlari yozib qoldirgan xotiralar.

Birinchi manbaga diqqat qaratadigan bo'lsak:

“XIX asrda yashab o'tgan Afzal Maxdumi Pirmastiy va Xoji Ne'matullo Muxtaram kabi tazkiranavislarning asarlarida buxorolik zullisonayn shoir Tamkin haqida mavhum ma'lumotlar, aniqrog'i, haqiqatni buzib ko'rsatuvchi noto'g'ri ma'lumotlar uchraydi”, - deb yozadi tojik olimi Asqar Jon Fido [6, 3].

Darhaqiqat, ushbu tazkiralar Tamkin haqida aniq ma'lumot bera olmaydi. Chunki o'zbek adabiyotida Tamkin ijodi hali o'rganilmagan. Biz imkon qadar shu masalaga yechim berishga harakat qilamiz.

Ikkinchi manba- Tamkin asarlariga murojaat etsak, ularda shoir o'zi haqida ayrim ishoralar qilgan. Ana shu ishoralarni diqqat markazimizda saqlab, shoirning shogirdlari xotirasini varaqlasak, o'xshashlik va yaqinlikni uchratamiz. Ushbu muvofiqlik tufayli shoirning hayoti va ijodi haqida aniqlikka erishish mumkin.

A.Tamkinning hayoti va ijodi haqida aytilgan har xil fikrlarga chek qo'yishda shoirning shogirdi Ja'farovning xizmati katta bo'ldi.

Ja'farovning yozilmalarida: “Dar sanai 1905 melodi (barobari 1322 hijriy) baroi tahsili ulum ozimi Buxoro gardida ...dar hovli Hoji Maxdum sokin gardidam. Alassaboh bo Hoji Maxdum ba hovlii domullo Abdurahmoni Tamkin raftem. Domullo bisyor odami xoksor va halim bud. Sinni sharifi eshon karib boi panjohu se rasida bud...”, -degan fikrlar uchraydi. Bu ma'lumotdan shu narsa aniq bo'ladiki, agar shoir 1905-yil 53 yoshda bo'lsa, demak, u 1851-1852-yillar atrofida Buxoro shahridagi Bo'yrafofi dahasida tavallud topgan. Otasi Mulla Abduxoliq degan kishi bo'lgan. Tamkinning umri Buxoroda o'tgan. U Buxoro madrasalarida tahsil olgan va ona-shahrida yashab, ilm o'rganganidan g'oyatda mamnun bo'lgan hamda tinch – osuda hayotini quyidagicha ifodalagan:

*“Bihisht joi tu, Tamkin chi joi reb dar o'
Ki monda bog'chaye yodgor az padar ast”.*

Tarjimasi: “Jannat joying sening Tamkin, eshiging jannat eshigi,
Shu joydagi bog' otangdan yodgordir”.

Abdurahmon Tamkin yashagan Bo'yrafofon mahallasi Buxoro shahridagi eng katta guzarlardan biri hisoblangan. Bu mahalla 1846- yil tashkil topgan. Lekin unda guzar nomi Bo'riyobofon deyilib, u yerda Hoji Qurbon nomida machit ham bo'lgan. Bo'yrafofon mahallasi Besh kappa deb ham yuritilgan. Keyinchalik bu yerdagi xalq bo'ya to'qish bilan shug'ullangani uchun guzar ham shundabo'ly nomlangan.

Bo'yrafofon mahallasi katta bo'lib, aholisi ham ko'p bo'lgan. Ular turkcha so'zlashgan. Mahalla aholisi ikkiga bo'lingan: mahallaning janubiy tomonida xorazmlik o'zbeklar, shimoliy tomonida esa chorjo'ylik turkmanlar yashagan. Ular Shoh Murod buyrug'i bilan ko'chib kelishgan. Shoh Murod Xorazm xoni bilan urishib g'alaba qozongan va xorazmliklarning bir qismini shahar markaziga olib kelgan, lekin joy bo'lmagani, aholi zichligi uchun ularga ana shu yerdan joy bergan. Bir qism turkmanlar esa joy yo'qligidan Qorako'l tumaniga ketishgan. Xorazmlik va turkman Xidir –Ellinlar avval birgalikda yashashgan. Lekin Amir Olimxon davrida

har bir elat o'zining oqsoqolini tanlab, ikkiga bo'linishgan. Ikki guruh ham bo'yrafoqlik kasbi bilan shug'ullangan. Guzarda ularning o'z bozorchalari ham bo'lgan. Shuningdek, mahalladagi anchagina aholi sobungarlik ham qilishgan.

1927-yilgi hisobotlarga ko'ra, guzarda 107 xo'jalik bo'lib, unda 420 kishi istiqomat qilgan. 1929-yili esa u qo'shni Chorbaqqoli darvozai Samarqand, Olim xo'ja guzarlari bilan birlashib, Samarqand guzari deb nomlana boshlangan.

Hozir bu guzar yana avvalgidek o'zining eski nomi – Bo'yrafofon nomini oldi [1,28-30]. Abdurahmon Tamkin Buxoriy ana shu mahallada butun umr yashab, ijod etib, xalqimizga go'zal asarlar va ibratli hayot yo'lini meros qilib qoldirdi.

Tamkin Buxorodagi "Dorushshifo" madrasasida dars bergan. Shoir asarlaridan ma'lum bo'ladiki, mudarris bo'lganiga qadar imom bo'lgan va davlat ishlarida ishlagan. Bu haqda shoir o'zining "Mo'liston" asarining muqaddima qismida ishora qilib, aytadi: "Dar tarixi gurrai sha'boni muazzam sanai 1315 bud, ki hazrati Zillil olamin (Amir Abdulahad) –ro dar oinai xotir chande uvari jam'iyati ahli fazlu kamol jilvapazir gardid, yake az on jumla bandai hejmadon hamagi sahu nuqson ... muddate se moh kamyobii in davlati bekaroni farovon ba mehrubonii maliki mannon bo hama vusuli ne'mat va ehsoni kasir ba qatori sar karda va amaratpanohon muvojjib va at'ima az noni ehsoni kasir bo shahdu shirini nomzad va maxsus megardid"[2, 8-9]. "Mo'liston" 17 baytdan iborat, u Buxoro amiri Abdulahadxonga madhiya tarzida bitilgan bo'lib, qit'a janrida yozilgan. Bundan tashqari, Tamkinning yana bir madhiyasi ham Abdulahadxonga bag'ishlangan. U xonni "*Chunin shohi diloso-yu dilorom*",- deb ko'klarga ko'taradi [3, 39]. Bu asar 71 baytdan iborat bo'lib, "Ganji shoygon" ("Shohlar duri") deb nomlangan. U masnaviyda yozilgan, tarkibida uchta ruboiy ham uchraydi. Tamkin 1898-1901-yillarda Amir Abdulahad saroyida eshikbonlik qiladi. Mana shu yillarda shoir barcha zulm va jaholatning sababchilari amirning tevaragidagi amir-u umarolar deb biladi. U amir Abdulahadni ularga ishonmaslikka, diyonatli bo'lishga chaqiradi.

Ashkam az mijgon ba ro'yam obro'yam rext –rext,

Obro' barbod shud, durri nako'yam rext-rext [4, 11].

(Ko'zlarimdan yoshlarim shashqator to'kildi,

Obro'yim yakson bo'ldi, orzularim yerga to'kildi).

Amir Abdulahadning ham shoirga e'tibori kuchli edi. Biroq g'alamis odamlarning ig'vosi tufayli shoir asta-sekin amirning nazaridan qoladi. Shoir qanchalik marhamat kutmasin, amir u kutgan narsani ravo ko'rmaydi. Oxir oqibat Tamkindagi ishonch va iltijo o'rnini cheksiz nafrat egallab, saroydan uzoqlashadi. Uning saroy ahlidan shunchalik ko'ngli qoladiki, hatto ular bilan duch kelib qolishni istamaydi. Bu istakni hatto "Mo'liston" asarida keltirilgan hikoyat orqali ham yaqqol ifodalagan.

Tamkinning bu nafrati haqqoniy va to'g'ri bo'lgan. "Navodiri Ziyoiya" asarining muallifi Sharifjon Maxdum ham Buxoroning nodon va belayoqat qozikaloni mulla Burhoniddin haqidagi Tamkin fikrlarini tasdiqlab buning to'g'riligini aytadi: "Mullo Burhoniddin valadi arshad Mullo Badriddin qozikaloni Buxoroi Sharif dar zamoni amir Abdulahad va amir Olimxon ba libosi qozikalon mulabbas ba masnadi shariat az judoyei mulabbas bud ... ba zammi qozikaloni bo in xari ba nodoni sharm

nokarda, dars ham meguft va az hama g'aribtar ba duxtari yake az generalhoi rus oshiq shuda bo mahkama kashida shud..., ki in bar hamoqat va sifohatashon daleli mujassam ast".

Mana shu fikrlardan aniq bo'ladiki, bir guruh riyokorlar Abdulahadxon atrofini zich o'rab olgan, ular tama va ochko'zlik bilan xalqni aldab keladilar. Tamkin bu fitna-yu fasod va badkirdorlik qobig'iga o'ralib qolgan kimsalardan uzoqroq ketgani uchun Ollohga shukrona o'qiydi:

*Sinasofam zohiru botin maro yakson buvad
Pust to mag' zam ba rangi naxlai rayhon buvad
Shukr lillah shud xamiram xoli az tuxmi fasod
In ham az lutfi amimi ezidi mannon buvad [5,32].*

Tamkinning bu gaplari uchun qozikalon mullo Burhoniddin uni mudarrislikdan ham bekor qiladi. Bu voqeadan keyin Tamkin majburan uzlatni ixtiyor qildi. Shoir "Jaroid" nomli asarining muqaddimasida hayotining bu davri (1914-yillar) haqida gapirib o'tadi.

Tamkinning adabiy merosi boy va sermahsuldir. U barcha janrlarda ijod qilgan. Chunonchi, qasida, g'azal, muxammas, qit'a, fard, chiston, muammo va hajv kabi janrlarda barakali ijod qilgan. Uning aksariyat asarlari tojik tilida yozilgan, biroq uning o'zbek va arab tillarida yozilgan ayrim she'rlari ham borki, bular Tamkin har uchala tilni ham mukammal bilganligidan dalolat beradi.

Shoirdan juda boy adabiy meros qolgan. Bular: "Devoni qasoid-u g'azaliyot", "Ganji shoygon", "Ruboiyot", "Jaroid", "Mo'liston", "Matole' ul-foxira va matolib uz-zahira". Yana shoirning ayrim she'rlari o'sha davrda yaratilgan tazkira va bayozlardan o'rin olgan.

Shuningdek, "Tazkirat ush-shuaro" asarining muallifi Hoji Ne'matulloh Muhtaramning xabar berishicha, Tamkinning "Junaydi laoli" degan asari ham bo'lgan. Lekin bu kitob va u haqdagi aniq ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan.

Tamkin devoni 6764 misradan iborat bo'lib, shundan 356 misrasi qasida va 6408 misrasi g'azaldir. "Ruboiyot" asarida esa 488 ruboiy, 1468 mufradod, 7 chiston va 6 muammo bor.

Shoir g'azallarini mazmun jihatidan 3 qismga bo'lish mumkin:

- 1)an'anaviy g'azallar;
- 2)amaldorlarni tanqid qilgan, hasad, kibr-g'urur, zararli xislatlar haqidagi g'azallar;
- 3)pand-u nasihat mavzusidagi g'azallar.

Shoirning "Jaroid" asari 1168 misra bo'lib, 305 qit'adan iborat. Bu asarning mavzusi pand-u nasihatdan iboratdir. Shoirning diqqat markazida muhim hayotiy masalalar turadi.

"Mo'liston" Sa'diyning "Guliston" iga payrov tarzida nazm-u nasrda bitilgan bo'lib, maxsus boblarga bo'linmagan. Bu asar 4 qit'a va 76 hikoyatdan iborat. Qit'a va hikoyatlar bir-biri bilan chambarchas bog'lanib, bir-birini to'ldirib boradi.

"Ma'ole'-ul-foxira va matolib -uz zohira" asari shoir umrining oxirgi yillarida yozilgan. Ushbu asar ham adabiy, ham tarixiy manba hisoblanadi. Tamkin biror bir shoir yoki olim haqida gapirar ekan, u yashagan sharoit va geografik hayot haqida

keng ma'lumot beradi. Bu asarda u Buxoro tarixi haqida, me'morlik san'ati haqida, madaniy yodgorliklari haqida keng to'xtaydi. Chunonchi, masjid, xonaqoh, ark, madrasalar va boshqa imoratlar haqida batafsil tasvir beradi.

Shuningdek, unda sayyoralarning harakati va ularning odamlarga ta'siri tabiatning o'zgarishi, daryolardagi iqlim, nabotot olamining xususiyatlari haqidagi sharhlarni ham uchratish mumkin.

Xoji Ne'matulloh Muhtaram tazkirasida Tamkin vafotini hijriy 1334-yil (milodiy 1915) deb qayd qilgan. Professor A.A.Semyonov esa Tamkin vafotini 1917-1918-yillar deb ko'rsatadi. Tamkin vafoti to'g'risidagi bu har xillikka ham shoirning shogirdi Ja'farov aniqlik kiritadi:

“Dar soli 1915 dar Buxoro bo domullo Tamkin az nav muloqot kardam. Vay az davrai piriash zaboni shikoyat kushoda guft: “Piri ham monandi davrai tufuliyat ast. Aknun qarib ba 63 daromadam, sihat va salomatiam az dast rafta, kasali tobu tavonamro rabuda, imkoni tavonash roh raftanam namondaast”... Poho domullo minavisad, Ja'farov, varam karda bud, hatto agar ba devor takya namekard, ba no xestan nametavonist”. Ana shu fikrlar ko'rsatadiki, Ne'matulloh Muhtaramning xulosasi haqiqatga yaqindir. Zero, shoirning shogirdi Ja'farovning ko'rsatmasi ham shuni tasdiqlaydi. Demak, Tamkin 1915-yil dunyodan ko'z yumgan.

Xulosa qilib aytganda, vaqt bizdan hayoti va ijodi o'rganilmagan fors-tojik tilida qalam tebratgan, ma'lum va mashhur Buxoriylarga oid manbalarni qaytadan ko'rib chiqishni hamda ularni bugungi kitobxonga tarjima orqali yetkazishni taqozo etmoqda. Buxoriylar asarlarini o'zbekchaga ag'darish davr talabidir. Tarjima nafaqat bir xalqni ikkinchisiga tanishtirish, balki bir xalqning ulug'lari, donishmandlari, olim-u fozillari yaratgan qadimiy merosni o'ziga qaytarish san'ati hamdir.

Demak, Tamkin Buxoriy ijodini xalqimizga yetkazish, bu ma'naviy buloqdan ularni bahramand etish, ajdodlarga ehtirom va avlodlar oldidagi burch sanaladi. Zero,

Adabiyot sohira tuyg'ular makoni,

Unda millat yashar, unda xalq yashar...

Har qanday shoir asarlari tahliliga diqqat qaratadigan bo'lsak, mumtoz adabiyotning asosiy ijod shakli she'riyat ekanligini va uni ilmiy o'rganadigan soha mumtoz adabiyotshunoslik ekanligini, klassik adabiyot namunalari esa shu nuqtayi nazardan o'rganilishi kerakligini diqqat markazimizda saqlamog'imiz lozim.

1851-1852-yillar atrofida tug'ilib, 1915-yilgacha yashab ijod etgan buxorolik shoir Abdurahmon Tamkin hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar va u yaratgan asarlar hali o'zbek adabiyotida mukammal holda o'z xulosasini topgan emas. Shoirning hayot yo'li, u yashagan tarixiy sharoit va adabiy muhit hamda ijodiy olami haqidagi savollarga javob topib, uni o'quvchiga yetkazish lozim.

XIX-XX asr boshlaridagi Buxoro adabiy muhitining yorqin vakili A.Tamkin ijodi orqali bilish mumkinki, bu davr adabiyoti zullisonayin adabiyot sifatida maktab darajasiga chiqqan desak xato bo'lmas.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Viloyat davlat arxivi, 37-fond, opis 1, delo 9; delo 254..

2.Navodiri Ziyoiya. Dastxati raqami 183, Gajinai dastxathoi sharqii AFRSS Tojikiston.

3. Tamkin. "Mo'liston". Dastxati tahti raqami 337. II III. O'z-n. varaq 8-9.
4. Tamkin. Devon. Qo'lyozma nomeri. 111. .
5. Tamkin. Ruboiyot. Var. 32.
6. Fido A.J. Tamkin . – Dushabe, 1974.

SHOH – DARVESH KONSEPTINING RUSTAM BAHODIRXON TIMSOLIDAGI ILMIY- BADIY IFODASI

Sh.A.Hayitov, BuxDU professori
M.Muxammadova, BuxDU o'zbek tili va adabiyoti
kafedrasio'qituvchisi, f.f.f.d

Anotatsiya: Ushbu maqolada Shayboniylar sulolasining vakillaridan biri bo'lmish Rustam Bahodirxon va uning ezgu fazilatlari xususida so'z boradi. Rustam Bahodirxon timsolida shoh-darvesh konseptining ilmiy-badiiy ifodasi chuqur tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob, Rustam Bahodirxon, qiyofat ilmi, shohlik va darveshlik, sur'at, siyrat.

Аннотация: Данная статья посвящена Рустаму Бахадир-хану, одному из представителей династии Шайбани, и его благородным качествам. В лице Рустама Бахадирхана глубоко анализируется научно-художественное выражение концепции царя-дервиша.

Ключевые слова: Хасанходжа Нисари, Музаккири ахбаб, Рустам Бахадирхан, наука об облике, царствование и дервиш, скорость, темп.

Annotation: This article is about Rustam Bahadir Khan, one of the founders of the Shaibani dynasty, and his virtues. In the person of Rustam Bahadirkhan, the scientific-artistic expression of the king-dervish concept is deeply analyzed.

Keywords: Hasankhoja Nisari. Muzakkiri ahbab, Rustam Bahadir Khan, the science of appearance, kingship and dervish, speed, pace.

Hasanxoja Nisoriy o'z zamonasining zukko allomasi sifatida yorug' olamga ko'z ochgan farzandga nom qo'yishi bilan bog'liq irim-udum, rasmu rusum va an'analardan mukammal xabardor bo'lgan. Sirdan qaraganda sodda va oson ko'ringan bu jarayon aslida g'oyatda murakkab, uning zamirida har bir xalq, har bir sulola, har bir qavm tabiati, fe'lu atvori, axloqi, e'tiqodi, avlodlardan avlodlarga, zurriyotlardan zurriyotlarga o'tib yashab kelayotgan an'analari yashiringanligini chuqur anglagan.

“Muzakkiri ahbob” dagi “Abdulmuzaffar Rustam Bahodirxon ibn mag'firatul-mabrur hazrat Jonibek sulton bin Xojagum sulton bin Abulxayrxonning muqaddas yodi” sarlavhasi ostidagi maqola ta'bi nazmi bor shayboniy amaldorining ismi bilan aloqador hikmatga o'quvchi e'tiborini tortish bilan boshlangan: “Atoqli oti va dovruqli nomining o'zi uning shijoatli zotiga dalildir” [1;33]. Tazkiranavis o'quvchi e'tiborini Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma” sining bosh qahramoni, beqiyos kuch-qudrat va shon-shuhrat sohibi Rustam va uning afsonaviy, mardonavor kurashlariga tortayotganligini anglash qiyin emas.

MUNDARIJA

<i>Obidjon Xamidov</i> BUXORO – JAHON TAMADDUNING BESHIGI	3
1-SHO‘BA. ADABIY MEROS, MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MASALALARI	
<i>Shavkat Hayitov, Kamola Qudratova</i> NAVOIY PANDNOMASINING BUXORODAGI QO‘LYOZMA NUSXASI HAQIDA.....	5
<i>Dilrabo Quvvatova, Sevinchbonu Baxtiyorova</i> ABU MANSUR AL-MOTURUDIYNING “KITOB AT-TAVHID” ASARINING MUMTOZ SHARQ ADABIY MANBASHUNOSLIGIDA TUTGAN O‘RNI.....	9
<i>Nazora Bekova, Xumora Ikromova</i> DEVONI SAYQALIYNING ILOHIYOTGA DOIR QISMLARINING QIYOSIY TAHLIL.....	12
<i>Safarova Hilola, Muzaffarova Surayyo</i> “ZARBULMASAL” ASARI NASHRLARIDAGI FARQLI O‘RINLAR	16
<i>Matkarimova Salomat</i> XORAZM ADABIY MUHITIDA TAZKIRANAVISLIKDA ALISHER NAVOIY TA‘SIRI.....	19
<i>Kenjayev To‘lqin</i> FITRAT ASARLARINING NASHRI BILAN BOG‘LIQ AYRIM QAYDLAR XUSUSIDA.....	26
<i>Hulkar Turdiyeva</i> SHERALI TURDIYEV TADQIQOTLARIDA FITRATSHUNOSLIK.....	31
<i>Azimjon Hamidov</i> SO‘ZDAGI HARF, TOVUSH BILAN BOG‘LIQ MATNIY FARQLAR, ULARNING MA‘NO VA BADIYYATGA TA‘SIRI.....	34
<i>Ш. Норкўчқоров</i> ТАҚТЕИ ҲУДУДИ ҲАРФҲОИ ҚОФИЯ ДАР “ШАҶРАТ- УЛ-АРЎЗ”-И САИД МУЗАФФАЛӢ.....	39
<i>Xudoyorova Nigora</i> ADABIY MEROS, MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MASALALARI.....	43
<i>Oripov Jahongir</i> BUXORO QO‘LYOZMALAR MUZEY-QO‘RIQXONASIDA SAQLANAYOTGAN DURBEKNING “YUSUF VA ZULAYXO” DOSTONI HAZORA NUSXASI XUSUSIDA.....	46
<i>Eshonqulova G.T</i> BADIYY TARJIMA VA UNING XUSUSIYATLARI.....	53
<i>Hamroyeva Sharifa</i> ASLIYATDA PRAGMATIK XUSUSIYATLAR VA UNING TARJIMADA QAYTA YARATILISHI.....	58
<i>Eshonqulova Feruza</i> HAYDAR XORAZIYNING “MAXZAN UL-ASROR” DOSTONI, UNING NUSXALARI VA NASHRLARI XUSUSIDA.....	62
<i>Davronova Mexrangiz</i> ARBA‘IN TOSHBOSMASINING ILMIY TAVSIFI TARKIBI VA TUZILISHI.....	65
<i>Муртазин Эмиль, Петров Рустем</i> ТРАДИЦИИ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА В ЛИТЕРАТУРЕ БУХАРЫ.....	70
<i>Shohsanam Suyunova</i> MANBALARDA SAYFIY BUXORIYNING “MUAMMO” RISOLASI VA NAVOIYNING MUAMMO YECHISH MAJLISLARINING YORITILISHI.....	73
<i>Olimova Munavvar</i> “HUVAYDOYI CHIMYONIY” TOSHBOSMASINING BOSMA NASHRLAR BILAN QIYOSIY TAHLILI.....	77

<i>Islomova Soxibaxon</i> CHO'LPON NAZMIY MANBALARI TASNIFI.....	82
<i>Журақулов Муҳаммадамин</i> РИСОЛАИ “ТАЗКИРА АЛ-ХАТТОТИН” РОҶӢ БУХОРОӢ (САВДО БИҲИШТӢ).....	87
2-sho'ba. BUXORO ADABIY MUHITI VA ISLOM SIVILIZATSIYASI	
<i>Sardor Kenjayev</i> AMIR TEMUR DAVRIDA BUXORO ADABIY MUHITINING XALQARO MUNOSABATLARGA TASIRI.....	93
<i>Sherxon Qorayev</i> BUHORO HUKMDORI AMIR SAYYID ABDULAHADXON SAROYI ADABIY MUHITI VA SHE'RIYAT KECHALARI.....	95
<i>Kemal Yavuz Ataman</i> MURAD BUHÂRÎ'NIN SEMERKAND'DAN İSTANBUL SEFERİ.....	101
<i>Ibotova Madina</i> ABU ALI IBN SINONING JON VA RUH HAQIDAGI QARASHLARI.....	106
<i>Marjona Toshpulatova</i> BUXORO ADABIY-MADANIY MUHITI TARIXIDAN.....	109
<i>Jo'rayeva Mohigul</i> XIX VA XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI IJTIMOIY-TARIXIY SHAROITIDA ILMIY-ADABIY MUHIT.....	114
<i>Nuriddinova Shaxnoza</i> ISLOM SIVILIZATSIYASI VAKILLARINING TIBBIY EPONIMLARDA UCHRASHI.....	121
<i>Soybnazarov Navruzбек</i> THE ROLE OF BUKHARA IN PRESERVING ISLAMIC LITERARY HERITAGE.....	124
<i>Umarov Baxtishod</i> SOMONIYLAR DAVRI ADABIY MUHITIDA FORSIYZABON SHOIRLARNING TUTGAN O'RNI.....	129
<i>Xudoyberdi Meyliyev</i> TEMURIY HUKMDOR XALIL SULTON VA VALIY SHOIR XOJA ISMATULLO BUXORIY.....	132
<i>F.A. Yakubova</i> ISLOM SIVILIZATSIYASI DAVRIDA BUXORO ADABIY JARAYONI.....	139
<i>Муртазина Диана, Муртазин Эмиль</i> РОЛЬ БУХАРЫ В РАЗВИТИИ ИСЛАМСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ И НАУКИ.....	142
<i>Санобар Насруллаевна</i> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЎЗУВЧИЛАР УЮШМАСИ БУХОРО ВИЛОЯТ БЎЛИМИ ФАОЛИЯТИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР.....	146
<i>Atilla Nazim oglu SÜLEYMANLI</i> ERKİN VAHİDOVUN “SÖZ LƏTAFƏTİ” ƏSƏRİNİN RƏNGLİ TABLOSU.....	153
<i>Rahmatov Murodjon</i> MIRZU ULUG'BEK DAVRIDA BUXORO MADRASALARINING FAOLIYATI.....	160
3-sho'ba. BUXORO ADABIY MUHITI VAKILLARI IJODI VA ADABIY TA'SIR MASALALARI	
<i>Oxunjon Safarov</i> SHOIR NAXLIY BUXORIYNING SHAXSIYATI VA SHE'RIYATI HAQIDA.....	163
<i>Mingbayev Nurlan, Rayxon Rasulova</i> MATN TAHLILI, TALQINI VA O'RGANILISHIDA BUXORO ADABIY MUHITINING O'RNI.....	169
<i>G'ayrat Murodov</i> SHOIRNING ILK TO'PLAMLARI.....	174
<i>Abduhamid Xolmurodov</i> TERAN TAHLILLAR SAMARASI.....	177
<i>G'ayrat Murodov</i> SHOIR SHE'RIYATI.....	183

Shoira Axmedova XX ASRNING 20-YILLARI O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGIDA TANQIDIY-BIOGRAFIK OCHERK JANRI RIVOJIDA FITRATNING O'RNI.....	188
<i>Darmonoy O'rayeva</i> ASAD GULZODAI BUXORIY SHE'RIYATIDA FOLKLORIZMLAR.....	192
<i>Dilrabo Quvvatova</i> QUTLUG' BIR MAKONDA GUL OCHDI CHECHAK.....	196
<i>Qahramon To'xsanov</i> SHAVKAT BUXORIY IJODIDA DINIY VA TASAVVUFIIY G'OYALAR IFODASI.....	204
<i>Husniddin Eshonqulov</i> MUJIRM – OBID VA UNING G'AZALNAVISLIK MAHORATI XUSUSIDA.....	208
<i>Nazora Bekova</i> ABDURAHMON TAMKIN BUXORIYNING HAYOTI VA ADABIY MEROSI.....	214
<i>Sh.A.Hayitov M.Muxammadova</i> SHOH – DARVESH KONSEPTINING RUSTAM BAHODIRXON TIMSOLIDAGI ILMIY- BADIY IFODASI.....	219
<i>Ergash Ochilov</i> NOSIR BUXORIY IJODIDA FAXRIYA BAYTLAR.....	222
<i>Ergash Ochilov</i> NOZIKTA'B VA DAQIQXAYOL SHOIR.....	228
<i>Dilnavoz Yusupova</i> HASANXOJA NISORIY ARUZSHUNOS HAM BO'LGANMI?.....	233
<i>Zilola Amonova, Gulchehra Murodova</i> QUL UBAYDIY IJODIDA YASSAVIYLIK TA'SIRLARI.....	237
<i>Sulaymon Shodiyev</i> MEN BILGAN G'ULOM AKA.....	242
<i>Shodmon Sulaymonov</i> KICHIK TADQIQOTNING ULKAN SABOQLARI.....	246
<i>Hilola. Safarova</i> ISTIQLOL YILLARI BUXORO ADABIY MUHITIDA DOSTON JANRIDAGI BADIY IZLANISHLAR.....	248
<i>Ma'rifat Rajabova</i> O'ZBEK VA FORS-TOJIK ADABIY ALOQALARI S. AYNIIY TALQINIDA.....	253
<i>Nazzora Bekova, Dilnavoz Achilova</i> ABDULQODIR KAROMATULLO IBN NE'MATULLO SABBOQ BUXORIY HAYOTI VA ADABIY MEROSIGA OID.....	257
<i>Normurod Avazov</i> FITRATNING PUBLITSISTIKASIDA MILLAT TALQINI.....	261
<i>Rajabov Dilshod, Ahrorova Nigina</i> TOSHPO'LAT AHMAD IJODIGA CHIZGILAR.....	265
<i>Davronova Shohsanam</i> ABDURAUFIY FITRAT SHE'RIYATINING O'ZIGA XOSLIGI.....	269
<i>Rajabova Ra'no</i> AHAD HASAN IJODINING MA'RIFIY AHAMIYATI.....	273
<i>Mavluda Ergasheva</i> DAVLAT MUSTAQILLIGI VA ABDURAUFIY FITRAT.....	277
<i>Saidova Rayhon</i> ABDURAUFIY FITRAT'IN YORUMLANMASINDA EDEBIYATTA "ŞİİR VE ŞAİR" SORUNLARI.....	281
<i>Sodiqova Dilorom</i> LIRIK JANRLAR YARATISHDA SHOIRA MUSLIHABEGIM MISKINNING BADIY MAHORATI.....	288

<i>Nafosat O'roqova</i> FITRAT SHE'RIYATIDA FLORISTIK VA FAUNISTIK OBRAZLARGA MUNOSABAT.....	293
<i>Zulayho Abdurahmon</i> ZANJIRBAND SHER QOSHIDA.....	297
<i>Munisjon HAKIMOV</i> JAMOL KAMOLNING «SHAYXURRAIS» DOSTONIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR.....	301
<i>Meltem Sancak, Nasiba Norova</i> ARISTOTEL HAMDA FITRATNING ADABIY TUR VA JANRLAR HAQIDAGI QARASHLARI.....	307
<i>Sohibova Zarnigor</i> FITRAT SHE'RLARIDA TABIAT MANZARASI.....	309
<i>Nasiba Norova</i> BUXOROLIK SHOIRALAR IJODI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR.....	313
<i>Choriyeva Mehriniso</i> ABDURAHMON TAMKIN IJODIDA MA'RIFIY G'OYA VA UNING BADIY IFODASI.....	318
<i>Nazarova Dildora</i> ZIKRILLA NE'MATNING BUXOROLIK SHOIRLAR G'AZALLARIGA MUXAMMASLARI BADIYATI.....	323
<i>Jamolova Zilola</i> ADABIY OBZORLARDA BUXORO ADABIY MUHITI VAKILLARI IJODI TAHLILI.....	325
<i>Qodirova Ro'zigul</i> FITRATNING "ADABIYOT QOIDALARI"GA BIR NAZAR.....	330
<i>Sayliyeva Zarina</i> IBROHIM HAQQUL MAHORATI.....	334
<i>Soliyev Firuz</i> OMON MUXTOR VA STIVEN KING DETEKTIV ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	338
<i>Narziyeva Dilnoza</i> OMON MUXTORNING "MUHABBAT O'LIMDAN KUCHLI" ROMANIDA MEHMON OBRAZI TALQINI.....	343
<i>Jumanazarova Rayxon</i> SHE'RIYATDA INSON VA TABIAT UYG'UNLIGI.....	346
<i>Maxmudova Robiyabonu</i> RUS VA O'ZBEK MAQOLLARIDA ONA OBRAZI.....	350
<i>Nosirova Dildora</i> JAN DE LAFONTEN MASALLARI OMON MUXTOR TARJIMASIDA.....	353
<i>Hikmatova Nigina</i> BUXOROLIK IJODKORLAR SHERIYATIDA "BOG" OGORONIMINING BADIY IFODASI.....	356
<i>Sayyora Latipova</i> JO'RA FOZIL QISSALARIDA TARIXIY VOQELIK VA BADIYLIKNING UYG'UNLIGI.....	359
<i>Qodirova Nasima</i> FITRAT TANQIDCHILIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	363
<i>G.SH.Kaxxorova</i> FITRAT ASARLARI TILIDA QO'LLANGAN YORDAMCHI SO'ZLARINING INGLIZCHA TARJIMADA BERILISHI.....	367
<i>Fozilova O'g'iloy</i> BUXOROLIK SHOIRLAR IJODIDA NAVRO'Z TALQINI.....	370
<i>Farmonova Mohinur</i> ADABIY TA'SIR: TEVFIK FIKRET VA ABDURAUFIY FITRAT.....	373
<i>Diyora Abdujalilova</i> ALISHER NAVOIY VA XOJA: ADABIY TA'SIR VA IZDOSHLIK MASALALARI.....	379

<i>Sa'dullayeva Shahlo</i> MUHAMMAD SALOMNING "DOVUL" QISSASIDA O'QITUVCHI OBRAZINING DIDAKTIK FUNKSIYALARI.....	384
<i>Xojiyeva Oynisa</i> ABDURAUF FITRATNING DRAMATIK ASARLARIDA XALQ MAQOLLARINING O'RNI.....	387
<i>O'rinova Maftuna</i> OXUNJON SAFAROV ILMIY MEROSI VA O'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGI.....	390
<i>Odinayeva Umida</i> TEMURIYLAR SULOLASI ADABIY MUHITING HINDISTON MADANIYATIGA TASIRI.....	392
<i>Islomova Shahnoza</i> MUMTOZ ADABIYOTDA TIBBIY BIRLIKLAR QO'LLANISHI.....	395
<i>Suvonqulova Laylo</i> FITRAT LIRIKASIDA OBRAZLAR TIZIMI.....	398
<i>Shomurodova Maftuna</i> O'ZBEK NAVOIYSHUNOSLIGI VA SADRIDDIN AYNIIY.....	402
<i>Giyazova Shahnoza</i> TILAK JO'RA SHE'RIYATIDA BAHOR TASVIRI.....	407
<i>Ismoilov Namozbek</i> XIROMIY "CHOR DARVESH" ASARINING TOSHBOSMA VA TABDILDAGI FARQLARI	411
<i>Nizomova Kamola</i> TOSHPO'LAT AHMADNING "LABIHOVUZ SHE'RLARI" TURKUMI HAQIDA.....	414
<i>Ochilova Nozima</i> ANVAR OBIDJON IJODI BUXORO ADBIYOTSHUNOSLARI TALQINIDA.....	418
<i>Hakimova Maftuna</i> ABDURAUF FITRATNING "QIYOMAT" HIKOYASIDA MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI TALQINI.....	420
4-sho'ba. BADIY MATN TAHLILI VA TALQINI	
<i>Zebo Qobilova, Namuna Tursunova</i> ISTIQLOL DAVRI MUQIMIYSHUNOSLIGINING YETAKCHI TAMOIYILLARI.....	427
<i>Ўлмасова Замирахон</i> ПОЭТИКАИ РОМАНИ "СЕ РЎЗИ ЯК БАҲОР"И САТТОР ТУРСУН.....	432
<i>Zilola Amonova, Eshonqulova Nasiba</i> "LISON UT-TAYR" DOSTONIDAGI TASAVVUFIIY, FALSAFIIY QARASHLAR.....	440
<i>Yuldasheva Dilorom</i> BADIY MATNDA SUKUTNING EKSPLITSIT VA IMPLITSIT IFODASI.....	443
<i>Бердиев Хусан, Ражабов Дилшод</i> МУКАРРАП САНЪАТИ ВА УНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАВСИФИ.....	449
<i>Latofat Toshmuhammedova, Mohigul Abdullayeva</i> TARG'IBOT MATNLARINING TAHLILI VA TALQINI: MUAMMO HAMDA YECHIMLAR.....	452
<i>Бердиев Хусан, Ёқубов Ихтиёр</i> "МУҲОКАМАТ УЛ-ЛУҒАТАЙН" АСАРИ ВА ЛИНГВОПОЭТИК ТАҲЛИЛ.....	458
<i>Muhammadoyev Hamidova</i> SHUKUR XOLMIRZAYEV NASRIDAGI OBRAZLARINING RUHIY-PSIXOLOGIK TASVIRI.....	461
<i>Раҳимова Наргис</i> АШЪОРИ СЕРГЕЙ ЕСЕНИН ВА АЛЕКСАНДР БЛОК ДАР ТАРҶУМАИ ФАРЗОНА.....	465

<i>Абдуллоҷонова Мавлуда</i> ИНЪИКОСИ ВАҚОЕИ ТАЪРИХӢ ДАР РОМАНИ АТО ҲАМДАМ ВА ЛЕОНИД ЧИГРИН “ОЗАР АЗ УСТРУШАН Ё ХУД ШАМШЕРИ СПАРТАК”.....	470
<i>Yusupova Dildora</i> BADIY MATNDA LEKSIK-POETIK BIRLIK LAR	476
<i>Boltayeva Gulchehra</i> “LAZGI” TARONASIGA ASOS BO’LGAN MUXAMMAS.....	481
<i>Salima Jumayeva</i> BADIYATGA OSHUFTA SHE’RIYAT.....	484
<i>Jumayeva Salima, G’ayratova Olima</i> GRAMMATIK SHAKLLARNING USLUBIY XOSLANISHI.....	490
<i>Nigina Hojiyeva, Dildora Muhamadiyeva</i> «MEVA» SO’ZINING ETIMOLOGIYASI HAMDA TARIXIY ADABIYOTLARDA NOMLANISHI.....	495
<i>Rajabova Go’zal, Abdunabiyeva Fotima</i> ABU ALI IBN SINONING OILA, OILAVIY TARBIYA, PSIXOLOGIK TARBIYA VA XALQ OG’ZAKI IJODI HAQIDAGI QARASHLARI.....	498
<i>Ruziyeva Nilufar</i> BADIY MATNLAR TAHLILIDA SOTSIOPRAGMATIK YONDASHUV TASNIFI.....	501
<i>Achilova Risolat, Tolibova Muyassar</i> TYPES OF SIMILE IN PROSE.....	504
<i>Karimova Shaxnozaxon</i> POETIK SINTAKSIS UNSURLARINING RUHIY HOLATLAR IFODASIDA NAMOYON BO’LISHI.....	506
<i>Ruziyeva Nilufar, Bafoyeva Mexrangiz</i> INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLAR TARJIMASINING O’ZIGA XOSLIGI.....	511
<i>Makhmudova Nargiza</i> THE INTERWOVEN THEMES OF ECOLOGY AND SOCIAL JUSTICE IN BARBARA KINGSOLVER’S NOVELS.....	514
<i>Джуракулова Гулноза</i> “ГӢРӢҒЛИ” ТУРКУМИДАГИ ДОСТОНЛАРДА НАЗАРКАРДА ЭПИК ФОРМУЛАСИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ.....	517
<i>Mamarizaeva Farangiz</i> THE PROCESS OF ANALYZING LITERAL TEXTS BASED ON S.AHMAD’S NOVEL “JIMJITLIK”.....	521
<i>Yunusova Ganjina</i> THE CHRONOTOPE OF THE ROAD IN MCCARTHY’S NOVEL “THE ROAD”.....	524
<i>Sabaxon Jo’raboyeva, Abdumalikova Tabassum</i> NAVOIYNING YAKPORA G’AZALLARIDA ISHQ VA DARD TUSHUNCHALARI.....	528
<i>Xudoyberganov Abdulla</i> SULAYMON BOQIRG’ONiy SHE’RIYATIDA TASAVVUFIY OBRAZLAR.....	531
<i>Qo’ziyeva Dilorom</i> OGHIY G’AZALLARIDA RIZO MAQOMINING BADIY IFODASI.....	534
<i>Назарова Раїхон</i> ЭКФРАСИС КАК СРЕДСТВО РЕКОНСТРУКЦИИ ЭПОХИ ТЮДОРОВ В ТРИЛОГИИ ХИЛАРИ МАНТЕЛ.....	536
<i>Hamdamova Shamshoda</i> TOHIR MALIK IJODIDA ILMIY-FANTASTIK TECHNOLOGIYALAR TALQINI.....	541
<i>Sodikova Bakhtigul</i> THE WORK OF JOHN FOWLES IN THE INTERPRETATION OF POSTMODERN LITERATURE.....	546
<i>Jo’rayeva Laylo</i> BADIY MATNLARDA LIBOS NOMLARINING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI.....	550

<i>Umarova Mohim</i> ILMIY FANTASTIKANING ASOSIY VAZIFASI	554
<i>Xayriyeva Nargiza</i> O'TKIR HOSHIMOVNING "BAHOR QAYTMAYDI"	
QISSASIDA MILLIY PORTRET IFODASI.....	559
<i>Avg'onova Gulnoza</i> MUQIMIY LIRIKASIDA REALISTIK TASVIR	
MAHORATI.....	564
<i>Dildora Muhammadjonova</i> AN INSIGHT INTO THE PERSONALITY OF	
ALEXANDER FEINBERG.....	570
5-sho'ba. TA'LIM TIZIMIDA BUXORO ADABIY MUHITI VAKILLARI	
IJODINI O'RGANISH VA O'QITISH MUAMMOLARI	
<i>To'rayeva Umriniso</i> ABDURAUF FITRAT IJODINI O'QITISH	
MUAMMOLARI.....	573
<i>Sariboyeva Maqsuda</i> O'QUVCHILARNING AXLOQIY SIFATLARINI	
SHAKLLANTIRISHDA HADISLARDAN FOYDALANISH.....	575
<i>Ulug'murod Amonov, Shahlo Saparova</i> THE METHODOLOGICAL	
SIGNIFICANCE OF SADRIDDIN AYNII'S AUTOBIOGRAPHICAL	
TALE "ESKI MAKTAB" IN TEACHING CHILDREN'S LITERATURE	579
<i>Равшанов Махмуд</i> СОЗДАНИЯ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКИХ СЛОВАРЕЙ НА	
ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ УРОВНЯХ.....	583
<i>Karimova Shaxnozaxon, Usmonova Mushtariy</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA	
INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI	590
<i>Бердиев Хусан</i> ТИЛ ТАЪЛИМИДА УМУМФИЛОЛОГИК	
МАНБАЛАРНИНГ ЎРНИ.....	593
<i>Po'latxo'jayeva Malika</i> RIVOJLANISHIDA NUQSONI BOLGAN BOLALAR	
PARVARISHIDA TIBBIY PSIXOLOGIYANINNG O'RNI.....	596
<i>Ruziyeva Nilufar, Safarova Sabrina</i> THE BENEFITS OF INTEGRATING	
READING AND WRITING IN THE CLASSROOM ACROSS	
DISCIPLINES.....	599
<i>Farangis Murodova</i> IBN SINO ASARLARIDA MILLIY MA'NAVIY	
MEROSNING BOLA TARBIYASIDAGI AHAMIYATI.....	603
<i>Ibrohimova Mohichehra</i> ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI	
DARSLARIDA MATNLAR BILAN ISHLASH ORQALI MANTIQUIY	
TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN	
FOYDALANISH.....	606
<i>Matkarimova Sayyora</i> BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA ERTAK	
O'QITISH METODIKASINING ADABIY-NAZARIY	
TUSHUNCHALARI.....	610
<i>Raxmatullayeva Nilufar</i> TA'LIM TIZIMIDA BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI	
DARSLARINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING O'RNI VA	
AHAMİYATI.....	614
<i>Aganiyazova Aziza</i> FITRAT IJODI VA YOSH AVLOD TARBIYASI.....	618
<i>Кариева Райхона, Равшанов Махмуд</i> ЦИФРОВИЗАЦИИ И ЭВОЛЮЦИЯ	
УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА В ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ КУРСА.....	620

Ilmiy nashr

**“BUXORO ADABIY MUHITI:
KECHA VA BUGUN”**

mavzusidagi

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

MATERIALLARI

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi:
Bichimi 60x84. Kegli 14 shponli. «Times New Roman» garn.
Offset bosma usulida chop etildi. Offset bosma qog'ozi.
Bosma tabog'i 12,2. Adadi 40.

“Fan ziyosi” nashriyoti
Bahosi kelishilgan holda.
“Dunyo poligraf plyus” X/K
bosmaxonasida chop etildi.

Mustaqillik ko'chasi 21-uy, Tel.: (91) 416-50-09